

INGLIZ TILI MATERIALLARI ASOSIDA TALABALARDA UMUMMADANIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING AMALIY-TEXNOLOGIK ASOSLARI

Baydjanova Dinora Karimovna

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: dinarayjanova1992@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-9384-2166>

Annotatsiya. Mazkur maqola ingliz tili materiallari asosida talabalarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishning amaliy-texnologik asoslarini o'rganishga bag'ishlangan. Chet tilini o'qitish jarayonida madaniyatlararo muloqot, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy-madaniy bilimlarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ingliz tili darslarida autentik matnlar, kommunikativ vazifalar, interfaol metodlar va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarning umummadaniy kompetentligini rivojlantirish yo'llari yoritib beriladi. Shuningdek, o'quv jarayonini texnologik jihatdan samarali tashkil etish, ta'lim natijalarini baholash mexanizmlari va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: umummadaniy kompetentlik, chet tillarini o'qitish, madaniyatlararo muloqot, ta'lim texnologiyalari, autentik matnlar, interfaol metodlar, kommunikativ yondashuv.

ПРАКТИКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ОБЩЕЙ КУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ МАТЕРИАЛОВ ПО АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация. Данная статья посвящена изучению практико-технологических основ развития общей культурной компетенции у студентов на основе материалов по английскому языку. В процессе преподавания иностранного языка анализируются педагогические возможности формирования межкультурной коммуникации, национальных и универсальных ценностей, а также социально-культурных знаний. Рассматриваются пути развития общей культурной компетенции студентов через использование аутентичных текстов, коммуникативных заданий, интерактивных методов и современных образовательных технологий в уроках английского языка. Также предложены способы эффективной технологической организации учебного процесса, механизмы оценки образовательных результатов и практические рекомендации.

Ключевые слова: общая культурная компетенция, преподавание иностранных языков, межкультурная коммуникация, образовательные технологии, аутентичные тексты, интерактивные методы, коммуникативный подход.

PRACTICAL AND TECHNOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING INTERCULTURAL COMPETENCE IN STUDENTS BASED ON ENGLISH LANGUAGE MATERIALS

Annotation. *This article is devoted to studying the practical and technological foundations of developing intercultural competence in students based on English language materials. In the process of teaching a foreign language, the pedagogical possibilities of forming intercultural communication, national and universal values, as well as social and cultural knowledge, are analyzed. The article outlines ways to develop students' intercultural competence through the use of authentic texts, communicative tasks, interactive methods, and modern educational technologies in English language lessons. Additionally, the paper suggests effective technological approaches to organizing the educational process, mechanisms for evaluating educational outcomes, and practical recommendations.*

Keywords: *intercultural competence, foreign language teaching, intercultural communication, educational technologies, authentic texts, interactive methods, communicative approach.*

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri raqobatbardosh, ijtimoiy faol va madaniyatlararo muloqotga tayyor bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Bu jarayonda talabalarda nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarni, balki umummadaniy kompetentlikni shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Umummadaniy kompetentlik shaxsning turli madaniy muhitlarda samarali muloqot qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur kompetentlikning rivojlanishi zamonaviy ta'lim mazmunining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Chet tillarini, xususan ingliz tilini o'qitish jarayoni umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ingliz tili bugungi kunda xalqaro muloqot, ilm-fan, texnologiya va madaniyatlararo aloqaning asosiy vositasi sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bois ingliz tili materiallari orqali talabalarga turli xalqlarning madaniyati, an'analari, ijtimoiy munosabatlari va qadriyatlarini tanishtirish, ularning dunyoqarashini kengaytirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Bunda til faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki madaniy axborotni uzatuvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitishni tashkil etish talabalarning amaliy faoliyatga yo'naltirilgan bilim va ko'nikmalarini shakllantirishni talab etadi. Ingliz tili darslarida autentik materiallar, kommunikativ vazifalar, interfaol metodlar va

raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy yondashuvi va madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish mumkin. Shu bilan birga, o'quv jarayonini texnologik jihatdan puxta rejalashtirish va samarali tashkil etish ta'lim natijalarining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Talabalarda umummadaniy kompetentlikni ingliz tili materiallari asosida rivojlantirishning amaliy-texnologik asoslarini ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar, metod va vositalarning samaradorligini aniqlash, shuningdek, ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Talabalarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish masalasi pedagogika, lingvodidaktika va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalarida faol tadqiq etib kelinmoqda. Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar kompetensiyaviy yondashuv, chet tillarini o'qitish metodikasi hamda ta'lim texnologiyalarining nazariy va amaliy jihatlarini yoritishga qaratilgan.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida D.Hymes tomonidan ilgari surilgan "kommunikativ kompetensiya" nazariyasi chet tillarini o'qitishda madaniy omilning ahamiyatini asoslab bergan muhim konsepsiyalardan biri hisoblanadi. Ushbu g'oya keyinchalik M.Byram tomonidan rivojlantirilib, u madaniyatlararo kompetensiyani til kompetensiyasining ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin qilgan. M.Byram o'z tadqiqotlarida talabalarda madaniy ong, tolerantlik va boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, C.Kramersch chet tilini o'qitishda til va madaniyatning uzviy bog'liqligini asoslab, autentik materiallardan foydalanish orqali madaniy mazmunni chuqur anglash mumkinligini ilmiy jihatdan yoritib bergan. Chet tillarini o'qitishda kommunikativ yondashuv masalalari J.Richards, T.Rodgers, H.Brown kabi olimlarning ilmiy ishlarida keng tahlil qilingan. Ularning fikricha, kommunikativ vazifalar va real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar talabalarning nafaqat til ko'nikmalarini, balki ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini ham rivojlantiradi. Shuningdek, R.Oxford tomonidan ishlab chiqilgan til o'rganish strategiyalari modeli

talabalarning mustaqil va ongli o'rganish faoliyatini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega.

Mahalliy olimlar tadqiqotlarida ham kompetensiyaviy yondashuv va chet tillarini o'qitishning zamonaviy masalalari keng yoritilgan. Jumladan, N.Sayidahmedov ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslarini ishlab chiqqan bo'lib, uning ishlari o'quv jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etishda muhim manba hisoblanadi. R.J.Ishmuhammedov va U.N.Nishonaliyevlar ta'limda interfaol metodlarni qo'llash orqali talabalarning faolligi va mustaqil fikrlashini rivojlantirish masalalarini chuqur tahlil qilganlar. Shuningdek, G.X.Mahkamova, D.X.Yo'ldosheva va M.Q.To'xtaxodjayevalarning ilmiy izlanishlarida chet tillarini o'qitishda madaniyatlararo muloqot, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va kompetensiyaviy yondashuv masalalari o'rganilgan. Ularning tadqiqotlarida ingliz tili darslarida autentik materiallar va kommunikativ topshiriqlardan foydalanish talabalarning umummadaniy kompetentligini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi ta'kidlanadi.

Mavjud ilmiy manbalarda chet tillarini o'qitishda madaniy komponentning ahamiyati yetarlicha yoritilgan bo'lsa-da, ingliz tili materiallari asosida umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishning amaliy-texnologik jihatlarini tizimli ravishda tadqiq etish zarurati saqlanib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishning amaliy-texnologik jihatlarini o'rganish, pedagogik yondashuvlarning samaradorligini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotda qo'llanilgan metodlar va usullar ilmiy tahlil, empirik tadqiqot, pedagogik eksperiment, amaliy tadqiqot va statistik tahlilni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqichda, nazariy tahlil orqali chet tillarini o'qitishning kompetensiyaviy yondashuvi, madaniyatlararo muloqot va umummadaniy kompetentlik haqida mavjud ilmiy adabiyotlar o'rganilib, xorijiy va mahalliy olimlarning fikrlaridan foydalanildi. Nazariy tahlilda, D.Hymes, M.Byram, C.Kramersch kabi olimlarning yondashuvlari asosida talabalarda madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishning ahamiyati ko'rib chiqildi.

Empirik tadqiqotda esa talabalarning ingliz tili o'qitish jarayonida madaniy kompetentlikni rivojlantirish darajasi aniqlanib, autentik materiallar va kommunikativ vazifalar orqali o'quvchilarning madaniyatlararo muloqot va madaniy bilimlarini qanday anglashlari o'rganildi. Empirik tadqiqotda savolnomalar va intervyular orqali ma'lumotlar to'plandi. Pedagogik eksperiment tadqiqotning muhim qismi bo'lib, ikki bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda talabalar uchun interfaol metodlar va kommunikativ vazifalar asosida darslar tashkil etildi, ikkinchi bosqichda esa o'quv jarayonining samaradorligini aniqlash uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqildi va tajriba sinovlari o'tkazildi. Amaliy tadqiqot jarayonida, o'quvchilar uchun interfaol metodlar va multimediya texnologiyalaridan foydalanish, shuningdek, o'qituvchilarni pedagogik malakasini oshirishga qaratilgan seminarlar va treninglar o'tkazildi. Tadqiqot natijalari asosida eng samarali usullar va metodlar aniqlanib, pedagogik amaliyotga tatbiq etish uchun ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotda statistik tahlil usullari ham qo'llanilib, talabalarning test natijalari va savolnoma javoblari tahlil qilindi. Olingan natijalar SPSS va Excel dasturlari yordamida qayd etildi va statistik jihatdan ishonchlilik baholandi. Shuningdek, metodik yondashuvlarning samaradorligini aniqlash uchun tajriba sinovlari natijalari solishtirilib, o'quv jarayonining samaradorligini baholash imkoniyatlari yuzaga keltirildi. Bundan tashqari, metodologiyaning keyingi bosqichlarida pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish, o'quv jarayonini yaxshilash va talabalarning madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish rejalashtirilgan.

Tadqiqot metodlari va usullarining taqqoslanishi

1-jadval.

Metodlar	Tavsifi	Manba
Nazariy tahlil	Chet tillarini o'qitishda umummadaniy kompetentlik va madaniyatlararo muloqot nazariyasi o'rganildi.	Ilmiy adabiyotlar, maqolalar, monografiyalar

Empirik tadqiqot	Talabalar orasida autentik materiallar va kommunikativ vazifalar orqali madaniy kompetentlikni baholash.	Savolnomalar, intervyular, testlar
Pedagogik eksperiment	Interfaol metodlar va kommunikativ vazifalar orqali talabalar faoliyatini o'rganish.	Dars mashg'ulotlari, tajriba sinovlari
Amaliy tadqiqot	O'qituvchilarni malaka oshirishga qaratilgan treninglar va seminarlar.	O'qituvchilar va talabalar bilan seminarlar
Statistik tahlil	O'quv jarayonidagi o'zgarishlarni baholash uchun statistik metodlar yordamida ma'lumotlarni tahlil qilish.	SPSS, Excel dasturlari
Yakuniy tahlil	Tadqiqotning natijalarini umumlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarish.	Tadqiqot natijalari, tahliliy ma'lumotlar

NATIJA VA MUHOKAMA

Tadqiqot davomida amalga oshirilgan empirik, metodik va pedagogik tajribalar, shuningdek, nazariy tahlil natijalari, ingliz tili materiallari asosida talabalarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishning samarali metod va texnologiyalarini aniqlashga imkon berdi. Olingan natijalar, ta'lim jarayonida madaniyatlararo muloqot va umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlarning samaradorligini ko'rsatdi.

Autentik materiallar, ya'ni haqiqiy hayotdagi matnlar, audio-vidyo materiallar va boshqa chet el madaniyatini aks ettiruvchi resurslar, talabalarda madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Talabalar autentik materiallar orqali nafaqat til ko'nikmalarini, balki madaniyatlararo bilimlarini ham shakllantiradilar. Ma'lum bo'ldiki, autentik matnlar va materiallar yordamida talabalarda ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarga

nisbatan sezgirlik, boshqa madaniyatlarni anglash va tushunishga bo'lgan qiziqish ortadi. Tadqiqotda qatnashgan talabalar, autentik matnlar asosida o'tkazilgan darslarda, madaniyatlararo farqlarni tan olish va ularga moslashish qobiliyatini aniq namoyish etganlar.

Pedagogik eksperiment va amaliy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ingliz tili darslarida interfaol metodlar, jumladan, jamoaviy muhokamalar, rolli o'yinlar, guruh ishlari va boshqa interaktiv faoliyatlar talabalarning faolligini oshirgan va o'quv jarayonini yanada samarali qilishga xizmat qilgan. Bu metodlar yordamida talabalarning muloqot qilish qobiliyatlari, fikrlarini erkin ifodalash ko'nikmalari rivojlandi. Shuningdek, interfaol metodlar talabalarga o'zaro madaniy aloqalar o'rnatishda va boshqa madaniyat vakillari bilan muloqotda o'z fikrlarini aniq va to'g'ri ifodalashda yordam bergan. Bu metodlar, shuningdek, talabalarning ijtimoiy madaniyatga nisbatan ongli yondashuvini rivojlantiradi, ularni turli madaniy kontekstlarda mustaqil fikrlashga undaydi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari, xususan, multimedia vositalari, interaktiv platformalar va raqamli resurslar o'quv jarayonida talabalar uchun yanada qiziqarli va samarali imkoniyatlar yaratadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalarni ta'limda qo'llash, talabalar tomonidan tez qabul qilinib, madaniy va til o'rganish jarayonlarini osonlashtiradi. Elektron kitoblar, videodarslar, onlayn kurslar va boshqa raqamli manbalar talabalarga o'quv materiallarini kengaytirishga, madaniyatlararo farqlarni tushunishga va xalqaro aloqalar uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, interaktiv texnologiyalar yordamida talabalarning mustaqil o'rganish qobiliyatlari ham o'sadi, bu esa o'z navbatida umummadaniy kompetentlikning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotda qo'llangan pedagogik yondashuvlar, shu jumladan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv va madaniyatlararo kommunikatsiya o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qildi. Tadqiqotda qatnashgan talabalar, o'qituvchilarning ta'lim metodologiyasidagi o'zgarishlarga ijobiy munosabat bildirganlar. Yondashuvlarning samaradorligini baholashda o'quvchilarning fikr va mulohazalari asosiy mezon bo'ldi. Bunda, umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodik usullar va

texnologiyalar talabalar tomonidan yuqori baholandi. Shuningdek, o'qituvchilarning pedagogik malakasi va metodik ko'nikmalarining oshishi talabalarning muvaffaqiyatlarini oshirishga yordam berdi. Ingliz tili darslarida autentik materiallar, interfaol metodlar va zamonaviy ta'lim texnologiyalarining birgalikda qo'llanilishi talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishda eng samarali usul hisoblanadi. Bu metodlarning o'zaro integratsiyasi, talabalar bilimlarini kengaytirish, ularning fikrlarini aniq ifodalash qobiliyatlarini rivojlantirish va ijtimoiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, pedagogik yondashuvlarning samaradorligi, o'quv jarayonini doimiy ravishda takomillashtirish va metodik yangiliklar bilan boyitish zarurligini ta'kidlab o'tish joiz.

Talabalarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, autentik materiallar va interfaol metodlar samarali vosita hisoblanadi. Bu yondashuvlar talabalarning madaniyatlararo muloqotga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularga turli madaniyatlar va ijtimoiy tizimlarni tushunish imkonini beradi. Shuningdek, talabalarda ijtimoiy faollik, muloqot qilish va o'z fikrlarini erkin ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari, pedagogik metodlarni takomillashtirish va o'quv jarayonini yanada samarali tashkil etish uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi.

XULOSA

Ingliz tili materiallari asosida talabalarida umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishning amaliy-texnologik asoslari maqolada tahlil qilinib. Ingliz tili darslarida faqat til ko'nikmalarini shakllantirish bilan cheklanib qolmasdan, turli madaniy, ijtimoiy va tarixiy ma'lumotlarni integratsiyalash orqali talabalar umummadaniy kompetentligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Materiallarni tanlashda va dars jarayonini tashkil etishda interfaol metodlar, kommunikativ va vaziyatli mashqlar, multimediya vositalari va loyiha ishlari samarali hisoblanadi. Bu nafaqat tilni amaliy qo'llash ko'nikmalarini mustahkamlaydi, balki talabalarni dunyoqarashi, madaniyatlararo muloqot ko'nikmalari va ijtimoiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, umummadaniy kompetentlikni

rivojlantirish texnologik yondashuvlar yordamida tizimli va doimiy tarzda amalga oshirilsa, talabalar mustaqil fikrlash, tanqidiy fikrlash va global muammolarni anglash qobiliyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, darslarda innovatsion metodlar va zamonaviy ta'lim resurslarini qo'llash, o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Natijada, ingliz tili darslarida umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish amaliy-texnologik asoslarini ishlab chiqish va joriy etish nafaqat til o'rganish jarayonini, balki talabalar shaxsiy va madaniy rivojlanishini ham yanada boyitadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. P.Benson Teaching and Researching Autonomy in Language Learning. – London, 2011. – 312 b.
2. H.D.Brown Principles of Language Learning and Teaching. – New York, 2014. – 448 b.
3. M.Byram Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. – Clevedon, 1997. – 250 b.
4. S.D.Krashen Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford, 1982. – 294 b.
5. J.C.Richards, T.S.Rodgers Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge, 2014. – 382 b.
6. Tomlinson B. Materials Development in Language Teaching. – Cambridge, 2013. – 336 b.
7. S.J.Savignon Interpreting Communicative Language Teaching: Contexts and Concerns in Teacher Education. – Yale, 2002. – 210 b.
8. M.Ziyadov Ingliz tilini o'qitishda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish. – Toshkent, 2020. – 144 b.
9. D.Karimova Innovatsion texnologiyalar yordamida ingliz tili darslarini samarali tashkil etish. – Toshkent, 2018. – 128 b.
10. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. – Cambridge, 2001. – 276 b.
11. S.X.Abdullayev Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent, 2015. – 120 b.